

FALSAFA FANINI O'QITISHDA INNOVATSIYA VA KREATIVLIKNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Gulxayo Ravshanova

TIQXMMIMTU katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Falsafa fanini o'qitish jarayoni ko'pincha an'anaviy usullarda, ya'ni ma'ruza o'qish va kitobdan o'qish bilan cheklanib qoladi. Bu esa talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi va ularning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun ham, talabalarga falsafa fanini o'qitishda innovatsion va kreativ yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada talabalarga falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlikni qo'llashga doir fikr-mulohazalar bayon etilgan. Maqolada talabalarga falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlik tamoyillarini qo'llashga oid tavsiyalar va uning ahamiyati yoritib berilgan. Falsafa fanini o'qitishda qo'llash tavsiya etilgan innovatsion usullarga hamda falsafa fanida kreativlikni rivojlantirishga doir taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul, innovatsiya, kreativlik, metod, interfaol o'yinlar, keys-study, debat-munozara, loyiha ishi, axborot texnologiyalari, esse.

Аннотация. Процесс преподавания философии часто ограничивается традиционными методами, а именно чтением лекций и изучением материала по книгам. Это может подавлять интерес студентов к предмету и препятствовать их активному участию в процессе получения знаний. Поэтому важно применять инновационные и креативные подходы в преподавании философии студентам. В данной статье изложены соображения по применению инноваций и креативности при обучении студентов философии. В статье освещены рекомендации по использованию принципов инновации и креативности в преподавании философии студентам, а также их значение. Представлены предложения и выводы касательно

инновационных методов, рекомендуемых для применения в преподавании философии, а также по развитию креативности в философии.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, инновация, креативность, метод, интерактивные игры, кейс-стади, дебаты-дискуссии, проектная работа, информационные технологии, эссе.

Abstract. The teaching of philosophy is often confined to traditional methods, namely lectures and reading from textbooks. This approach can diminish students' interest in the subject and impede their active participation in the learning process. Therefore, it is crucial to implement innovative and creative approaches when teaching philosophy to students. This article presents reflections on applying innovation and creativity in teaching philosophy to students. The article highlights recommendations for implementing principles of innovation and creativity in philosophy instruction and their significance. Suggestions and conclusions are provided regarding innovative methods recommended for use in teaching philosophy, as well as developing creativity within the field of philosophy.

Keywords: credit module, innovation, creativity, method, interactive games, case study, debate-discussion, project work, information technologies, essay

Talabalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etish har bir o'qituvchidan novatorlikni talab etadi. Pedagogik faoliyatga innovatsiyalarni joriy qilish zamon talabidan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Bu borada "M. I. Potashnik innovatsiya jarayonining quyidagicha tuzilmasini ko'rsatadi: Faoliyat tuzilmasi - motiv-maqсад-vazifa-mazmun-shakl-metodlar - metodik komponentlar vig'indisi. Subyektiv tuzilma - innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviv, tuman, shahar va boshqalar. Mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruvda yangilikning paydo boiishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi. Tashkiliy tuzilma - tashxislash, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiiq etuvchi". Potashnik faoliyatni shakllantiruvchi unsurlar sifatida qiziqtirish, darsdan kutilgan natija va uni harakatlantiruvchi dars usullarini



belgilaydi. Ushbu jihatlar pedagogikaning xususiy tarmoqlariga kirib bormoqda. Jumladan, ona tili o'qitish metodikasi, tarix o'qitish metodikasi, xususan, falsafa o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim jarayonida innovatsiyalarni qo'llash bilan bir qatorda talabalarda kreativlik – yaratuvchanlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, kreativlik xalqaro baholash dasturlarining negizini ham tashkil etmoqda. Kreativlik haqida “chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Hameni yozadi: “Kreativlik o'zida yangicha yo'sinda amalga oshirilgan o'zlashtirish to'liqligini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e'tirozlariga sabab bo'luvchi faoliyatidir”. Ko'pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o'ziga xosligi va xususiyatlariga e'tibor qaratadilar. J.Gilfodning fikricha, kreativlik, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo'lmashligi muammosi, qiyinchiliklar qarshisidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi”. Bizning fikrimizcha esa har qanday tushunishning asosida tasavvur yotadi. Tasavvur va ongning xususiyatlarini esa falsafa fani o'zining o'rganish obyekti sifatida qaraydi. Bundan tashqari “D.B.Elkoninning fikricha, ta'lim samaradorligi o'qitish jarayonida egallangan bilimning miqdori va sifati; rivojlanish samaradorligi o'quvchilar qobiliyati o'sishi darajasi bilan belgilanadi”. Biz jamiyatga robotlarni emas, balki ijodiy qobiliyati rivojlangan shaxslarni tayyorlab bermog'imiz kerak. bu esa o'z navbatida pedagoglar oldiga qanday uul va vositalar orqali talabalarda yaratuvchanlik, kreativ fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mumkin degan muammoni qo'yadi. Zero, hayotda iqtidorsiz o'rganuvchi bo'lmaydi, ammo buni aniqlab, yuzaga chiqartirish va rivojlantirish bugungi zamonaviy pedagogikaning asl maqsadi hisoblanadi. OTM talabalarining kreativligini oshirish uchun dars jarayonida turli maqsadlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Masalan,

Talabalarning dars davomida savollar bilan murojaat etishlarini rag'batlantirish. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini berishda loyihaga asoslangan vazifalarni belgilash va uni himoya qilishga o'rgatish.

Ular o'zlari tomonidan yaratgan narsa yoki loyihalarini omma ya'ni guruh oldida namoyish qilishlari uchun sharoit yaratib berish.

Topshiriqlarni talabalarga berishdan oldin ularning qiziqishlarini va bilim saviyasini inobatga olish.

Tayyorlangan ishlarning sifatiga alohida ahamiyat berish.

Talabalarning mutaxassislik yo'nalishidan kelib chiqib topshiriqlar berish.

Kreativlikni rivojlantirishning yo'llari sifatida dars jarayonida interfaol metodlar, lohiyaga asoslangan ta'lim usullari, muammoli ta'limga asoslangan dars usullarini qo'llash.

Biologiyada akseleratsiya tushunchasi bo'lib, bu me'yordan ilgarilab ketish degan ma'noni anglatadi. Bugungi kun talabasi ham dars beruvchidan ilgarilab ketmoqda. Ana shularni hisobga olgan holda o'qituvchi ham o'zida kreativ yondashuvni hosil qila bilishi kerak. Innovatsiyalar yordamida hamkorlikda o'qitish jarayonini dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali tashkil qilish ham mumkin. Bunda FigJam platformasini qo'llash mumkin. FigJam platformasi ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va izohlar yaratishga yordam beradi. Buning uchun FigMa saytiga kirilib, ro'yxatdan o'tiladi. Yangi doska yaratiladi va siz ushbu doskaga o'quvchilarni taklif etasi. Bugungi OTMda ushbu sharoitlar yetarli ekanligi hisobga olinsa, ushbu usulni bimalol qo'llash mumkin. FigJamda bir vaqtda ko'p talabalar bilan ishlash mumkin, ma'lumotlar, izohlar, diagrammalar qo'shish mumkin. Bundan tashqari loyiha va g'oyalar yaratib, uni saqlab olish va eksport qilish mumkin. Ushbu platforma oliy ta'limda kredit-modul tizimida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil ta'limini taahkil etishda yoki topshiriqlar tayyorlashda qo'l keladi. Kredit-modul tizimida o'quvchilarni baholash va joriy nazorat yoki oraliq nazoratlarni o'z vaqtida, shaffof amalga oshirishingiz mumkin.



Bunda biz taklif etayotgan platforma Plickers deb nomlanadi. Ilova orqali savolnomalar, tezkor savol-javoblarni amalga oshirish mumkin. Bu orqali o'qituvchilar talabalarni interaktiv asosda baholashlari mumkin bo'ladi. Bunda internet brovzer yordamida <https://get.plickers.com> sayti orqali ilovasi yuklab olinadi. Ushbu ilova kamerali telefonlarning barchasiga yuklanadi. Talabalarning barida bunday telefon borligi hisobga olinsa, jarayon amalga oshishi oson hisoblanadi. Saytda bepul qo'shilish imkoni bor, bunda shaxsiy google akkauntidan foydalaniladi. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng talabalarni qo'shasiz va virtual sinf yaratasiz. Shundan so'ng savollar va testlar tuzasiz. Har bir talabaga avtomatik tarzda QR-kodli kartochkalar taqdim etiladi. Talabalarga ushbu kartochkalar tarqatiladi. Ekrandagi savollarga qarab, kartochkalar buriladi, ekran buni to'g'ridan to'g'ri ilova orqali ko'rish mumkin. Bu ham shaffof va qiziqarli bo'ladi. Talabalarda kreativlikni hosil qilish kichik guruhlariga bo'lib ishlash orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu borada Abu Nasr Forobiyning «Fan va aql-zakovat» asarida ta'limning tashkiliy masalalalari, o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish" ning afzalliklari haqidagi mulohazalarini keltirish o'rinlidir. Shu o'rinda ta'lim jarayonida talabalarni kichik guruhlariga ajratish tayyorlanadigan loyihalarning sifatli bo'lishiga ham ta'sir o'tkazadi. "Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish barcha fanlarni, jumladan, falsafani ham o'qitishning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Falsafa fundamental fan sifatida talabaning dunyoqarashini shakllantirishda, uning tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Shuning uchun falsafani kredit-modul tizimi doirasida o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi". Falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlikni qo'llash talabalarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni shakllantirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga zamin yaratadi. Yuqorida keltirilgan usullar va metodlarni qo'llash orqali falsafa darslarini yanada qiziqarli, samarali va talabalar uchun foydali qilish mumkin. Kelajakda ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar

va kreativ yondashuvlarni yanada kengroq joriy etish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarni nafaqat bilimli, balki ijodiy va innovatsion fikrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa fani, o'z mohiyatiga ko'ra, talabalarning tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni shakllantirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlikni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Falsafa fanini o'qitishda innovatsion usullarga quyidagi usullarni qo'llash tavsiya etiladi: Interfaol o'yinlar. Falsafiy muammolarni o'yin shaklida muhokama qilish talabalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, falsafada inson muammosini o'rganishda o'yin shaklida muhokama qilish mumkin. Debatlar va munozaralar. Falsafa ta'limida talabalar falsafaning asosiy o'rganish qonuniyatlarini muhokama qilish orqali talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar va o'z fikrlarini asoslashni o'rganadilar. Dialektika, mantiq, estetika singari falsafiy qonuniyatlarni bahs-munozara orqali tahlil qilish ushbu fanning ahamiyatini yanada ortishga xizmat qiladi. Keys-study. Haqiqiy hayotdan olingan misollar asosida falsafiy muammolarni tahlil qilish talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. "Ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarining yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi, o'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-study texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir". Loyihaviy ishlar. Talabalarni mustaqil ravishda falsafiy mavzular bo'yicha tadqiqot olib borishga undash ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarga real hayotdagi muammolarni hal etish uchun falsafiy metodlarni qo'llashni o'rgatish va loyihalash ularni ijodiy fikrlashga, yangi qarashlarni kiritishga undaydi. Axborot texnologiyalari. Internet resurslari, multimedia vositalari va ta'lim platformalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.



O'quv jarayonida multimediali taqdimotlar, videolavhalar, animatsiyalar, virtual reallik texnologiyalari va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanish modulni yanada tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Onlayn platformalar orqali o'quv materiallarini taqdim etish, testlar o'tkazish va o'quv jarayonini yanada qulay va interaktiv qilish hamda talabaga vaqtdan yutish imkonini beradi. Kreativlik esa yangi g'oyalar va yechimlar hosil qilish qobiliyatidir. Falsafa fanida kreativlikni rivojlantirish, talabalar o'rtasida innovatsion fikrlashni rag'batlantirish uchun talabalarga falsafiy mavzularda esse yozish, ilmiy maqolalar tayyorlash, she'rlar yozish, falsafiy mavzularga bag'ishlangan videolar yaratish va o'z fikrlarini o'ziga xos tarzda ifoda etish imkoniyatini berishni anglatadi. Falsafiy esse va hikoyalar yozish orqali talabalarda o'z fikr va mulohazalarini ijodiy shaklda ifoda etish qobiliyatlari rivojlanadi.

Falsafiy asarlarni sahnalashtirish vositasida talabalar falsafiy g'oyalarni chuqurroq anglaydilar va o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etadilar. Shu bilan birga ushbu jarayonda o'zi ishtirok etishi modulni tushunishning samaradorligini oshiradi. Falsafiy mavzularga bag'ishlangan rasmlar chizish yoki haykaltaroshlik ishlari bilan shug'ullanish talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, globallashuvning mohiyatini tasviriy san'at vositasida ifodalash talabalarda globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini kengroq anglashlariga xizmat qiladi. Falsafiy g'oyalarni musiqa orqali ifoda etish ham talabalarning kreativligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, estetikani mohiyatini tushunishda musiqa juda kata ahamiyatga ega. Barcha millatga xos bo'lgan xusuiyat shundaki, har bir millatning onasi, eng avvalo, o'z chaqalog'iga ilk kunlaridanoq alla aytib berish orqali estetik tarbiya jarayonini boshlab beradi. Xulosa. talabalarga falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlik yondashuvlari, nafaqat ularga nazariy bilim berishi, balki ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi va mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar uchun innovatsiya va kreativlik yondashuvlari va o'z darslarini yangi ko'rinishlarda olib borishi pedagogik maxoratni talab etadi. O'qituvchi o'quv jarayonida faqatgina an'anaviy usullar bilan cheklanmasdan,

innovatsion va kreativ yondashuvlarni ham faol qo'llashlari, talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlariga va o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishlariga yordam berishi talab etiladi. Talabalarga falsafa fanini o'qitishda innovatsiya va kreativlikni qo'llash, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Innovatsiya va kreativlik yordamida falsafa fani talabalar uchun hayotiy va qiziqarli fanga aylanadi hamda ushbu moduldan olgan ko'nikmalarni hayotda qo'llay oladi.

\

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavlvanova R. Raxmankulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. O'quv qo'llanma // T.: "Voriz-nashriyot" 2013. 239 bet.
2. <https://www.figma.com/figjam/onlayn-whiteboard/> (murojaat sanasi 22.10.2024.)
4. Ismadiyorov K.M. The significance of teaching philosophy in the credit-module system in higher education institutions // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 12, Number 6, 2024. P 101
5. Tolipov S.G'. Keys-stadi innovatsion o'qitish texnologiyasi sifatida // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), May, 2023